

TARBIYACHI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGIDA ATROF- MUHIT HAQIDAGI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Amirova Hafiza Olimjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası magistri

E-mail: amirovahafiza38gmail.com

UDK: 373.24

<https://orcid.org/0009-0009-1054-9922>

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tizimi yosh avlodning porloq kelajagi sari qo’yilgan ilk qadami hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida esa maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga mehr, atrof-muhitni asrab avaylash nafaqat tarbiyachining balki ota-onalarning ham muhim vazifasidir. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni sog’lom muhitda ulg’ayishi uchun nafaqat tarbiyachi balki ota-ona hamkorligidagi ishlarni tashkil etish mazmuni va usullari keng yoritib berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlarning yangi yondoshuvdagi shakllari keltirib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Ota-ona va tarbiyachi hamkorligi, ekologik loyiha, oilaviy hamkorlik, interaktiv metodlar, raqamli platformalar, bolalar shaxsiy rivojlanishi, ekologik tashabbuslar, oila va ta’lim muassasasi integratsiyasi.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ

Аннотация: *Система дошкольного образования является первым шагом на пути к светлому будущему подрастающего поколения. В условиях глобализации воспитание любви к природе и бережного отношения к окружающей среде у детей дошкольного возраста является важной задачей не только воспитателей, но и родителей. В данной*

статье раскрывается содержание и методы организации совместной деятельности воспитателей и родителей по обеспечению здоровой среды для развития детей. Представлены современные формы сотрудничества дошкольных организаций с семьями.

Ключевые слова: *Сотрудничество воспитателей и родителей, экологический проект, семейное взаимодействие, интерактивные методы, цифровые платформы, личностное развитие детей, экологические инициативы, интеграция семьи и образовательного учреждения.*

Organization of Environmental Activities in Cooperation between Educators and Parents

Abstract: *The preschool education system is considered the first step toward the bright future of the young generation. In today's era of globalization, fostering love for nature and cultivating environmental awareness among preschool children is not only the responsibility of educators but also of parents. This article highlights the importance and methods of organizing joint activities between teachers and parents to ensure children's upbringing in a healthy environment. It also presents innovative forms of cooperation between preschool institutions and families.*

Keywords: *Cooperation between parents and educators, ecological project, family partnership, interactive methods, digital platforms, children's personal development, environmental initiatives, integration of family and educational institutions.*

Kirish: Bugungi kunda O'zbekistonda ekologik ta'lim-tarbiya masalalari dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Global ekologik muammolarning kuchayib borishi, tashqi muhitning insonlar tomonidan ifloslanishi kabi muammolarning faol kuchga aylanishiga olib kelmoqda. Hozirda ekologik ta'lim bugunning talablariga to'lliq javob beroladi deb aytolamiz. Biroq ona tabiatimizga ko'rsatilayotgan tajovuzkorona munosabat

natijasida sodir bo'layotgan turli hil ekologik muammolarni oldini olishda tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligida atrof-muhit haqidagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning o'rni beqiyos. "O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'irisi"dagi PQ-5712-son farmoniga muvofiq o'quvchilarning tabiiy savodxonligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim jarayoniga o'qitishning 70 innovatsion shakl va usullarini joriy etish maqsadida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilab berildi. Bunday tabiiy fanlarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi bolalarda maktabgacha yoshdan boshlab ushbu fanlarga qiziqishni shakllantiradi, bunday fanlar ularda olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Natijada, bolalar fizika va kimyo kabi tabiiy fanlarning qiyin emas, balki juda ham qiziqarli ekanini anglaydi va ularni o'rganishga ichki ehtiyoj sezadi. Mavzular boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilgani sababli ular bir-birini mantiqan to'ldiradi va fanlararo integratsiyani ta'minlaydi. Masalan, suvning holatini o'rganish jarayonida bolalar uning xususiyatlari, qaysi holatda bo'lishini tushunish orqali (qattiq, suyuq, gaz) kimyo, yomg'ir ta'sirida yer yuzida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi (ekologiya) haqida bilimga ega bo'ladi. Buning natijasida bolalar hayotiy muhim ko'nikmalarga ega bo'lib, atrof-muhitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarda o'zini hamda yon-atrofidagi insonlarni himoya qilish zarurligini tushunadilar. Shuningdek, sog'lom turmush tarziga amal qilishning ahamiyatini ham anglab yetadilar. Hozirgi kunda bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zaro hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Oila bolaning ilk tarbiya oladigan makoni bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti esa ushbu tarbiyani tizimli tarzda davom ettiradi. Agarda bu ikki muhit o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borsa, bolaning bilim, ko'nikma va malakalari yanada mustahkamlanadi. Ayniqsa ekologik tarbiya masalasida oila va tashkilot o'rtasidagi hamkorlik bolalarda tabiatga nisbatan ongli

munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolaning fikrlash qobiliyati, dunyoqarashlari uy va ta'lim tashkilotida bir xil yo'nalishda shakllanadi. Tarbiyachi va ota-onaning hamkorlikdagi say-harakatlari tarbiyaviy ishlarni samarali qilishda hamda atrof-muhitni muhitni muhofaza qilish borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni bolaga muntazam singdirish imkoniyati yaratiladi. Hozirgi kunda quyidagi hamkorliklarni tashkil etish mumkin.

1. Ota-onalar bilan yakka tartibdagi manaviy va marifiy uchrashuvlar - ota-onalar bilan alohida ishlagan holatda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib chiqib ular uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha seminar, davra suhbatlari va ochiq tabiat qo'ynida amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida olib boriladigan qo'shma tadbirlar-bular ota-onalarning guruh bo'yicha umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, "Farzandim uchun bir kun", "Yashil bog'cha", "Gul va ko'chatlar ekish kuni", "Tabiatga g'amxo'rlik qilish kuni" kabi umumiy tadbirlardir.

3. Axborotlar almashish - ota-onalarga farzandlarining erishgan yutuqlari haqida doimiy tarzda malumotlar berish maqsadida ochiq eshiklar kuni, qo'l mehnatini namoyon qilish, oilaviy kitob o'qish kuni, ekologik bukletlarni tarqatish kabilardir.

4. Ijodiy faoliyat – ota-onalar va bolalar ishtirokida tabiatga oid rasm chizish, aplikatsiya yasash, meva urug'lari va barglardan hayvonlarni yasash, sahna ko'rinishlari.

5. Amaliy faoliyat- tabiat qo'ynida ekskursiyalar, sayohatlar, bog'cha sharoitida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, sug'orish, yangi gullar va daraxtlar ekish, qushlar va hayvonlarni oziqlantirish (tipratikan, toshbaqa, to'tiqush, bedana).

Ekologik muammolar dunyo bo'ylab globallashtayotganda yosh avlodga tabiatni asrab-avaylash g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshda ekologik ko'nikmalarni shakllantirish, bolaning ongida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun tarbiyachi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash usullari samaradorligini ko'plab shakl va vositalar orqali ko'rib chiqish mumkin. Ota-onalar uchun ekologik faoliyatni uy sharoitida amalga oshirish uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, tarbiyachilar tomonidan maslahatlar va individual suhbatlar asosida psixologik tavsiyalar berish mumkin. Ekologik bilimni oshirish hamda ota-onalar faol ishtirokchi sifatida jalb qilish uchun amaliy seminar va treninglar uyushtirish kabilardir. Bugungi kunda zamonaviy sharoitda ota-onalar bilan tezkor axborot almashish imkoniyatini Telegram, WhatsApp guruhlarini ta'minlaydi. Bu platformalar orqali esa ekologik videodarslar, testlar, fotohisobotlar joylashtirish ota-onalarni ham jarayonga faol jalb etadi. Sababi ko'pchilik ota-onalar ish vaqtida farzandlarining bog'cha faoliyatidagi faolligini kuzatib borish imkoniyatiga ega emas. Oila va bog'chaning uzviy hamkorligini tashkil etish orqali esa bolalarda mustahkam ekoko'nikmalar shakllanadi, uy va ta'lim muassasasi talablarida uyg'unlik yuzaga keladi, ekologik tarbiya izchil jarayonga aylanadi. Masalan, ayrim MTMLarda "Yashil haftalik" loyihasi o'tkazilib, unda ota-onalar va bolalar bog'chada daraxt va gul ekish, chiqindilarni ranglarga ajratib saralash, qayta ishlatiladigan buyumlarni qo'llash kabi faoliyatlarni birgalikda bajaradilar. Bu tajriba oilada ham ekologik tozalik odatlarni davom ettirishga xizmat qiladi. Hamkorlik yo'llarini kuchaytirish uchun esa ota-onalarni bevosita ekologik loyihalarga jalb etish kerak. Buning uchun bog'chada "oilaviy gulzor" loyihasini ishlab chiqish mumkin. Ota-onalar va MTTning hamkorlik usullarini kuchaytirish maqsadida "Blum kubogi" metodi taklif qilinadi. Bu metod bolalarda axborotlar tizimini qabul qilish va bilim o'zlashtirishni yengillashtiradi ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar va

ularning ota-onalari uchun bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtirish uchun qo'llaniladi. Ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan tuziladigan "ochiq" savollar va ularga javob topish vazifalarini belgilaydi. "Blum kubigi" metodining afzalliklari bisyor bo'lib, uni qo'llash jarayonida bolajonlarda savollarni to'g'ri o'ylash, axborot almashinuvi, o'rganilayotgan materialni analiz-sintezlash qilish, ma'lumotlarni qiyoslash, solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, masalani idrok etishda turli dalillarni keltirish va refleksiv faoliyat ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur metod o'quv muammosini yechimini topishda uni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Buning uchun avvalo muammoni aniqlaymiz; kerakli jihozlarni tayyorlaymiz; tajriba rejasini tuzamiz; tajribani o'tkazamiz; tajriba natijalarini qayd etamiz; xulosa qilamiz.

Metodni amalga oshirish tartibi oddiy, bolalar uchun tushunarli va bajarishda ortiqcha zo'riqish, ruhiy kuch talab qilinmaydi, aksincha yuqori motivatsiya va refleksiyaga ehtiyoj seziladi. Metodni qo'llash bosqichlari ketma-ketlikda amalga oshirilsa samarali natijaga erishiladi. Ushbu metodni qo'llash uchun, oddiy kub kerak bo'ladi. Kubning har bir tomonida quyidagi so'zlar yoziladi:

1. Bog'changiz yon atrofini ta'riflab bering (bolalar uchun oddiy savol).
2. Nima uchun bog'imizga gullar va darraxtlar ekiladi (sabab-oqibatni aniqlashtiruvchi savol).
3. Nima uchun gullarga suv quyiladi tushuntirib bering (muammoga har tomonlama qarash savoli).
4. Plastik idishlar foydalimi yoki zararli o'ylab ko'ring va taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol).
5. Plasmassa chiqindilarni qizil sariq yoki yashil rangli idishlarga solish mumkin emasligini tushuntiring. (ijodkorlikni rivojlantiruvchi savol).

6. Bog'chani "Yashil makon " qilish uchun nima qilgan bo'lar edingiz (tahlil qilish va baholash savoli).

Xulosa: Maktabgacha ta'lim sohasida ekologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Chunki globallashtirish davrida ekologik inqirozlar, resurslarning chegaralanganligi va inson faoliyati oqibatida yuzaga kelayotgan muhitdagi o'zgarishlar yosh avlodning ekologik ongini erta shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ekologik tarbiyani tashkil etishda oila bilan ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi o'rin tutadi. Oilaviy muhit bolaning dastlabki ijtimoiylashuv makoni bo'lib, u yerda shaxsiy qadriyatlar bilan bir qatorda tabiatga nisbatan munosabatning ilk ko'rinishlari ham shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa bu jarayonni maqsadli va tizimli tarzda davom ettiruvchi pedagogik maydon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki tizimning uyg'un faoliyati natijasida bolalarda ekologik tushunchalar, kundalik hayotda qo'llaniladigan ko'nikmalar hamda atrof-muhitga nisbatan ongli qarashlar paydo bo'ladi. Hamkorlikni yo'lga qo'yishda turli shakl va metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, individual suhbatlar, ota-onalarga maslahatlar berish, jamoaviy uchrashuvlar, qo'shma loyihalar va oilaviy tadbirlar shular jumlasidandir. "Yashil bog'cha", "Tabiatni asraymiz", "Oilaviy gulzor" kabi tashabbuslar nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham ekologik madaniyatini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ota-onalarni doimiy ravishda ta'lim jarayoniga jalb etishga yordam beradi. Umuman olganda, pedagog va ota-onalar o'rtasida yo'lga qo'yilgan muntazam hamkorlik ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon natijasida bolalarda tabiat hodisalarini anglash, ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish hamda tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy malakalar shakllanadi. Natijada, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining birgalikdagi faoliyati ekologik tarbiyani izchil jarayonga

aylantirib, kelajak avlodning ekologik mas'uliyatli shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5712-son Qarori. – T.: Lex.uz.
2. Xasanboyeva, O. M., & Yo'ldosheva, D. R. *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. – Toshkent: Noshir, 2021. – 256 b.
3. Rasulova, D. M. *Ekologik ta'lim va tarbiya nazariyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 210 b.
4. Sagdullayeva, N. Sh. "Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish". – *Maktabgacha ta'lim jurnali*, №3, 2022. – B. 45–52.
5. G'ulomova, N. S. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni shakllantirishda tarbiyachining o'rni". – *Ilm va jamiyat*, №5, 2021. – B. 112–117.
6. Mahmudova, G. K. *Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik bilim berish metodikasi*. – Samarqand: Zarafshon, 2019. – 180 b.
7. Vygotsky, L. S. *Imaginative Play and Developmental Psychology*. – Moscow: Pedagogika, 1996. – 320 p.
8. Elkonin, D. B. *Psixologiya igry*. – Moskva: Pedagogika, 1978. – 304 s.
9. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – Paris: UNESCO, 2017. – 62 p.
10. Bronfenbrenner, U. *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. – Harvard University Press, 1979. – 352 p.